



---

**CHET TILLARINI O'QITISHDA QO'SHIQLAR USTIDA ISHLASH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10725195>

**Jo'rayeva Moxinur Najmiddin qizi**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy maqola chet tillarini o'qitishda qo'shiqlar ustida ishlash usullariga bag'ishlangan. Yaratilgan ilmiy maqola asosan MTM tarbiyachilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari va chet tillarini o'qitish metodikasiga qiziquvchi barcha shaxslarga mo'ljallangan.

**АННОТАЦИЯ**

Данная научная статья посвящена разработке над песням при обучении иностранных языков. Данная научная статья полезна всем, кто интересуется в обечении методических работ иностранных языков.

**ANNOTATION**

This scientific article is dedicated to the working with songs teaching foreign languages. Due to this, this application is suitable for everybody who wants to enter to the world of the methods of foreign languages.

**Tayanch so'z va iboralar**

og'zaki nutq, qo'shiq, talaffuz, tovush, talaffuz qilmoq, so'z.

**Ключевые слова и выражения**

устная речь, песня, произношения, произносить, слово.

**Key words and expressions**

speaking, song, pronunciation, sound, pronounce, word.

Har bir til o'zining muhim tarkibiy qismlariga ega. Masalan, og'zaki nutq, yozma nutq, grammatika, orfografiya va hakoza. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Grammatikasiz og'zaki va yozma nutqda hech qanday amal bajara olmaymiz. Grammatikani bilsag-u og'zaki va yozma nutqimiz bo'lmasa, o'rganilayotgan tildan amala foydalana olmaymiz. Orfografiyaga oid bilimlarga ega bo'lmasak, oddiy so'zlarni ham o'qiy olmaymiz. Shuning uchun o'rganilayotgan tilning bir qismini ikkinchisidan ustun qo'yib bo'lmaydi. Tilning barcha tarkibiy qismlari singari og'zaki nutq ham o'ziga xos xususiyatlarga ega va til o'rganishda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, o'quvchilarga ta'lim va



tarbiya berishda o'qituvchi pedagogik texnologiyaga ega bo'lishi kerak. T.S. Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuyidir»<sup>1</sup> [1; str 16]. Darhaqiqat, har bir o'qituvchining dars mobaynida ko'plab zamonaviy usul va vositalaridan foydalanishi davr talabi hisoblanmoqda. Hozirgi kunda til o'rganuvchilarining og'zaki nutqini yaxshilash va rivojlantirish uchun ko'plab o'quv dasturlar, metod va qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Albatta bulardan o'quvchilarning xususiyati, qiziqishi, bilish va o'rganish darajasidan kelib chiqib foydalanishimiz kerak. Xuddi shunday usullardan biri chet tillarini o'qitishda qo'shiqlardan foydalanish. Quyidagi ilmiy maqolamizda « Chet tillarini o'qitishda qo'shiqlar ustida ishlash » mavzusiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Har bir MTM va umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi va tarbiyalanuvchilarga qo'shiqlar yod oldiriladi. Buning asosiy maqsadi xotirani kuchaytirish, nutqni ravon qilish va dunyoqarashni kengaytirish bilan birga o'quvchilarni bilimlarini boyitishdir. Xuddi shu maqsadlarni oldinga qo'ygan holda chet tillarini o'qitishda qo'shiqlardan foydalaniladi. Masalan, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari o'rta hisobda 5 va undan ko'proq qo'shiqlarni yod olishadi. Bu albatta o'quvchilarning og'zaki nutqiga yaxshi ta'sir qiladi. Qo'shiqlarning ijobiy tomonlaridan biri o'quvchining og'zaki nutqini ravon qilishidir. Bunda o'quvchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi va unda o'rganilayotgan tilga xos bo'lgan ohanglarni talaffuz qilish qobiliyati hosil bo'ladi. Masalan:

Chat, chat, chat,  
Chat noir, chat blanc, chat gris,  
Charmant cha couché,  
Chat, chat, chat,  
N'entands-tu pas le souris  
Danser à trois des entrechats  
Sur le plancher ?  
Le bourgeois ronfle dans son lit,  
De son bonnet de coton coiffé  
Et la lune regarde à la vitre<sup>1</sup> [2; p.197].

Tristan KLINGSORning ushbu she'ri o'quvchilarning [ã] tovushini to'g'ri talaffuz qilishiga yordam beradi. To'g'ri, tovushlarni talaffuz qilish qiyin emas. Lekin o'rganayotgan tilimizning hamma tovushlari ham ona tilimizda mavjud emas. O'z ona tilida bu kabi tovushlar mavjud bo'lmagan tili o'rganuvchilar talaffuz va og'zaki nutqda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Shuning uchun

<sup>1</sup> Назарова Т.С. Педагогическая технология: новый этап эволюции. Т., 1999, 16-стр.

<sup>1</sup> Гастон Може. Курс французского языка. Т., Санкт-Петербург, 2002, page 197.



bolalarga yoshligidan chet tillarini o'rgatish va ko'proq qo'shiqlar yod oldirish kerak.

Qo'shiqlarning og'zaki nutqni rivojlantirishga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlaridan yana biri so'z o'rgatishdir. O'quvchilar ma'lum mavzular asosida so'z yod olishadi. Agar shu so'zlar ishtirok etgan qo'shiqlardan dars mobaynida foydalanilsa, bu yangi so'zlarning o'quvchilar xotirasida yaxshi o'rin olishiga va o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga xizmat qilishi mumkin. Masalan, « L'histoire de Petit Jean » qo'shig'i orqali o'quvchilarga tana a'zolarini o'rgatish oddiy so'z yodlatishdan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Jean Petit qui danse

De ses bras il lance

De son bras, de sa main, de son doigt

Ainsi, danse Jean Petit<sup>2</sup> [3; francaisfacile.com].

Qo'shiq shu to'rtlik bilan boshlanadi. Qo'shiq davomida bittadan tana a'zosi qo'shiq tarkibiga qoshilib boradi va qo'shiq so'ngiga qadar 3 ta tana a'zosi 9 taga aylanadi. Bular: le cœur (yurak), la tête (bosh), l'épaule (yelka), le ventre (qorin), la jambe (oyoq), le pied (oyoqning pastki qismi), le bras (qo'l), la main (qo'lning pastki qismi), le doigt (barmoq). Berilgan to'rtlikdagi 3 ta a'zoga qo'shiq davomida yana 6 ta a'zo qo'shilishi natijasida bu to'rtlik yana 6 marta, jami 7 marta takrorlanadi. Bu esa tabiiy ravishda so'zning xotiradan mustahkam joy olishiga katta hissa qo'shadi. Agar o'quvchilar qo'shiqni kuylash jarayonida shu tana a'zolarini o'zlarida ko'rsatishsa bu yana ham samaraliroq bo'ladi. Shu kabi qo'shiqlardan foydalanib, o'quvchilarga ranglar, qushlar, hayvonlar, sonlar va boshqa mavzularga oid so'zlarni o'rgatishimiz mumkin.

Chet tilini o'rganishning boshlang'ich bosqichida turgan o'quvchilarga dars o'tishda videoli musiqa va qo'shiqlardan foydalanish afzalroq hisoblanadi. Chunki bu bosqichdagi o'quvchilar doim ham qo'shiqni so'zma-so'z tarjima qilishni bilishmaydi. Agar ularga videoli qo'shiqni namoyish qilsak, videoni ko'rib qo'shiq haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Bu o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga va shaxsiy fikrga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Bunga

« Ah, les crocodiles » qo'shig'ini misol qilishimiz mumkin :

Un crocodile, s'en allant à la guerre

Disait au revoir à ses petits enfants

Trainant ses pieds, ses pieds dans la poussière,

Il s'en allait combattre les éléphants<sup>1</sup> [4; MONDE des PETITS.FR ].

<sup>2</sup> « L'histoire de Petit Jean ». [www.francaisfacile.com](http://www.francaisfacile.com).

<sup>1</sup> « Ah, les crocodiles ». [www.MONDE des PETITS.FR](http://www.MONDE des PETITS.FR).



« Un crocodile, s'en allant à la guerre » misrasi kuylanayotganda ekranda qurol olib ketayotgan timsoh namoyish etiladi. « Disait au revoir à ses petits enfants » jumlasini « O'zining nabiralari bilan xayrlashdi » deb tarjima qilinadi. O'quvchilar buni oq ro'molchasini silkitayotgan timsohni ko'rish orqali tushunishlari mumkin. « Trainant ses pieds, ses pieds dans la poussière, Il s'en allait combattre les éléphants » qismidagi « Fillar bilan jang qilgani changda qiynalib yurayotgan oyoqlarida ketyapti » ma'nosini videoda namoyish etiladigan timsoh oyog'i, chang va shahdam qadam tashlayotgan timsoh obrazi orqali bilishlari mumkin. Albatta ularni anglab olish o'quvchilarning yoshi, xususiyati va dunyoqarashlariga bog'liq. Shuning uchun qo'shiqlarni tanlashda ularni albatta hisobga olish kerak.

Yuqori sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonida ham qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Bunda qo'shiqlar ustida alohida tarzda ishlanadi. Misol uchun

o'quvchilarga qo'shiq matni beriladi. Lekin unda o'tilgan mavzuga dahldor bo'lgan so'zlar tushirib qoldiriladi. O'quvchilarga qo'shiq 3 marotaba eshittiriladi va ular tushirib qoldirilgan so'zlarni topishlari kerak bo'ladi. Bu ancha qiziqarli va samarali metodlardan biridir. Chunki o'quvchilarda bir vaqtning o'zida ham grammatikaga oid, ham og'zaki va yozma nutqqa oid bilimlar shakllanadi. Bu quyidagi ko'rinishda bo'ladi :

J'attends que demain arrive et demain j'... encore

J'attends de pouvoir tout dire, d'... les bleus de mon corps

J'attends de ne plus ... mais, est-ce que ça vaut le coup

D'attendre de ne plus faire d'erreurs, ou alors je ne ... plus du tout<sup>1</sup>[5;luciolesenvole.com].

Completez les points par les verbes (Nuqtalar o'rnini fe'llar bilan to'ldiring).

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, og'zaki nutqni rivojlantirishda turli xil metodlardan foydalanish kerak. Ushbu ilmiy maqolamizda faqatgina qo'shiqlarga to'xtalib o'tdik. Qo'shiqlar singari she'rlar, qisqa metrajli filmlar, o'yinlar, animatsiyalar va shu kabi boshqa metodlar og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Inson bor ekan doimo odamlar bilan muloqotda bo'ladi, ma'lumot almashadi, fikrlashadi. Bularning barchasi og'zaki nutqga borib taqaladi. Shu sababdan til o'rgatishda og'zaki nutqni rivojlantirish doimo muhim bo'lib kelgan. Qo'shiqlar esa bu rivojlanishga o'z hissasini qo'shuvchi metodlardan biridir.

<sup>1</sup> www.luciolesenvole.com



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Назарова Т.С. Педагогическая технология: новый этап эволюции. Т., 1999, 16-стр.
2. Гастон Може. Курс французкого языка. Т., Санкт-Петербург, 2002, page 197.

**Internet manzillari:**

1. « L'histoire de Petit Jean ». [www.francaisfacile.com](http://www.francaisfacile.com).
2. « Ah, les crocodiles ». [www.MONDE des PETITS.FR](http://www.MONDE des PETITS.FR)
3. « J'attends ». [www.luciolesenvole.com](http://www.luciolesenvole.com)